

“Suffa” radioobservatoriyasi faoliyatiga bag‘ishlangan xalqaro anjuman o‘z ishini boshladi

2018 yil 27 avgust kuni O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Prezidiumi binosida **“O‘zbekistondagi Suffa yassi tog‘ida joylashgan radioobservatoriyaning bugungi holati va istiqbollari”** nomli xalqaro anjumani ochilishi bo‘lib o‘tdi. Anjuman O‘zbekiston va Rossiya Fanlar akademiyalari tomonidan har ikkala mamlakat hukumatlarining topshirig‘iga asosan tashkil etildi.

Barpo etilayotgan “Suffa” Xalqaro radioastronomik observatoriya (XRAO) Toshkentdan 200 km janubi-g‘arb tomonda Suffa yassi tog‘ida joylashgan. Observatoriyaning asosiy ilmiy asbobi sifatida antenanasining diametri 70 metr bo‘lgan radioteleskopni o‘rnatish ko‘zda tutilgan bo‘lib, u radioto‘lqinlarning millimetrlilik diapazonida ishlaydi. Suffa yassitog‘ida radioobservatoriyani qurish ishlari 1982 yilda boshlanib, 8 yil davomida uning eltuvchi minorasi qurib bitkazilgan edi. 90-yillarning boshida observatoriya qurilishi moliyaviy sababdan to‘xtatib qo‘yildi. Shunga qaramasdan, 1995 yilda “Suffa” Xalqaro radioastronomik observatoriyasi qurilishini tugallash haqida O‘zbekiston va Rossiya hukumatlararo kelishuvi imzolandi. 2007 yilda Uzbekiston tomoni yordamchi infrastrukturani yaratish bo‘yicha ishlarni boshlab yubordi, lekin RT-70 radioteleskopi konservatsiya rejimida edi.

“Suffa” Xalqaro radioastronomik observatoriyasi (XRAO)ni yaratish loyihasi O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Rossiya Prezidenti Vladimir Putin tashabbusi amalga oshirilmoqda. Shu yilning iyun oyida Rossiya Fanlar akademiyasi prezidenti O‘zbekistonga tashrif buyurdi. Bu tashrif asosan RT-70 radioteleskopni qurib bitkazishga bag‘ishlangan edi. Shuni ta’kidlash lozimki, Rossiya FA prezidenti Aleksandr Sergeyev RT-70 ning holatini “yaxshi” deb baholagandi. U ikki davlat rahbarlari Suffa yassitog‘idagi radioteleskop va boshqa inshootlar qurilishi xalqaro observatoriya doirasida oxiriga yetkazishga qaror qilganligini ham tasdiqladi va ishlar 2019 yilda boshlanishini aytdi. Tashrif davomida tomonlar 2018 yilda “Suffa” Xalqaro radioastronomik observatoriyasini qurilishini qayta boshlashga bag‘ishlangan anjuman o‘tkazishni ham rejalashtirgan edilar. Mana bugun anjuman o‘z ishini boshladi.

Anjumanning asosiy maqsadi- “Suffa”XRAO ning faoliyatini tiklash bo‘yicha mavjud muammolarini tahlil qilish, shunday murakkab xalqaro ilmiy obyektini qurish bilan bog‘liq ko‘plab ilmiy, texnikaviy va tashkiliy muammolarga amaliy yechim topish, ushbu loyihada uchinchi davlatlarning ishtiroki imkoniyatlarini o‘rganish, shuningdek, astrofizika va radioastronomiya sohasida xalqaro fundamental tadqiqotlarni rivojlantirishga qaratilgan.

Anjumanning birinchi kunidagi yalpi yig‘ilishda “Suffa” XRAOning hozirgi holati haqida, shuningdek XXI asrdagi yer usti va kosmik radioastronomiyaning submillimetr sohasidagi rivojlanish yo‘nalishlari va Maydanak observatoriyasining zamonaviy holati va kelgusidagi rivojlanishi haqida ma‘ruzalar tinglanadi. Anjumanning sho‘‘balari “Suffa” XRAO si majmuasini loyihalashtirishdagi texnik muammolarga, diametri 70m lik parabolik antenanasini qurishga, radioastronomiyadagi yangi texnologiyalar va RT-70 radioteleskopining ilmiy maqsadini muhokama qilishga bag‘ishlangan.